

6. Melibaeva Gulxon Nazrullaevna. (2023). AN OVERVIEW OF THE FUNCTION OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN EMPLOYEE PERFORMANCE AND MOTIVATION. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 117–121. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.850>
7. Aliyevich, Y. A. (2023). O 'ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 76-78.
8. Gulomkodiroya Mamura Saydumarxon qizi. (2024). A STUDY ON SAFETY MEASURES IMPLEMENTED BY LE ROMA GARDENIA RESORT (VRS INFRA) DURING THE COVID-19 PANDEMIC. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 78–84. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/6446>
9. Omonjon, U. (2024). ILMIY TURIZM VA UNING YEVIROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI. Kokand University Research Base, 940-943.
10. Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li. (2024). DAVLAT SOLIQ SIYOSATIDA EKOLOGIK SOLIQLARNI JORIY ETISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 927–930. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/259>
11. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
12. Ismoilov, B. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT XARIDLARIDAGI ISHTIROKI:(Farg'ona viloyati misolida). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 133-135.
13. Yormonqulova, N. (2024). IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109–112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>
14. Jurayev, U. (2024). TURIZM MOLIVASIDA INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNING ROLI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 75–77. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1027>

SHAHNISABZDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH.

Raxmonova Nilufarxon A'zamjon qizi

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrasi o'qtuvchisi
umarovomonjon1994@gmail.com

Ahmedova Ruxshona Rahmatjon qizi

Qo'qon universiteti talabasi,

Annotatsiya: Ushbu tezisda Shahrisabzning turizm salohiyatini yaxshilash va uni dunyo bo'ylab tanitish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, Shahrisabz, turistik salohiyati, Amir Temur, turistik inshootlar, transport, tarixiy merosni saqlash.

Kirish: Shahrisabz O'zbekistonning tarixiy va madaniy merosi bilan boy bo'lgan qadimiy shaharlardan biridir. Bu shaharda Amir Temur va uning hukmronligi davriga oid ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, ular xalqaro turizmga katta ahamiyatga ega. Shahrisabzda turizmni rivojlantirish, bir tomondan, tarixiy obidalarni saqlash va tiklash, boshqa tomondan esa, zamonaviy infratuzilma yaratish bilan bog'liq. Tarixiy merosni saqlash va yangi infratuzilma yaratish orqali Shahrisabz nafaqat O'zbekiston, balki jahon turizm bozorida o'zining mustahkam o'rnini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Avvalo, Shahrisabz jahonning eng qadimgi shaharlaridan biri ekanligini unutmasligimiz lozim. Olimlarning fikricha Shahrisabz 2700 yoshda bu esa "Boqiy shahar" Rimning yoshidir. YUNESKO qaroriga ko'ra aynan shu sana 2002-yilda butun madaniy dunyoda nishonlangan.

Asosiy qism: O'zbekistonning "Oltin doirasi" deb ataladigan Shahrisabz turizm yo'nalishining muhim nuqtalaridan biri hisoblanadi. Shahar Amir Temurning tug'ilib o'sgan yurtidir va uning hukmronligi davriga oid ko'plab obidalar saqlanib qolgan. Bu obidalar nafaqat tarixiy, balki madaniy jihatdan ham katta qiymatga ega. Shahrisabzdagi eng muhim tarixiy obidalar (Oqsaroy saroyi, Shohizinda majmuasi, Xo'ja Ahror Vali maqbarasi va boshqalar) xalqaro konservatsiya standartlariga muvofiq tiklanishi kerak. Har bir obida o'ziga xos, noan'anaviy materiallardan foydalanib restavratsiya qilinishi lozim. Shahrisabz atrofida yangi arxeologik qazishmalarni amalga oshirish, tarixiy obidalar haqida yangi ma'lumotlar olish va ilmiy maqsadlarda o'rganish. Tarixiy obidalar atrofidagi hududlarni ekologik va estetik jihatdan himoya qilish, sayohatchilarga yodgorliklarni yanada qadrliroq qilish uchun sharoitlar yaratish. Tarixiy yodgorliklarni o'rganish, targ'ib qilish va ulardan ilmiy manfaatlar olish uchun maxsus markazlar tashkil etish, bu orqali shaharning madaniy ahamiyatini oshirish.

Shahrisabzda turizmni rivojlantirishda yangi infratuzilma yaratish juda muhim. Bu yerda sayyohlarni jalb qilish uchun qulay va zamonaviy muhit yaratish, shu bilan birga shahar hududining umumiy rivojlanishini ta'minlash kerak.

Mehmonxona va turistik inshootlar qurish: Zamonaviy va tarixiy muhitga mos mehmonxonalar va turistik komplekslar yaratish zarur. Bular shaharning an'anaviy arxitekturasiga mos bo'lishi kerak, shu bilan birga sayohatchilarga qulay xizmatlarni taqdim etishi lozim. Turistik komplekslarda konferensiya zallari, ko'ngilochar joylar va madaniy tadbirlar uchun maydonlar bo'lishi kerak.

Transport tizimini yaxshilash: Shahrisabzga kirish va chiqishni osonlashtirish uchun yangi yo'llar va transport tizimi qurilishi zarur. Yangi avtobus yo'nalishlari, temiryo'l va havo transporti imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, shaharda avtomobil va piyoda harakati uchun mos infratuzilma yaratish zarur.

Yashash va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi: Mehmonlar va turistlar uchun keng qamrovli restoranlar, kafe va do'konlar, shuningdek, sayohatchilar uchun arzon va sifatli xizmatlar ko'rsatuvchi infratuzilma yaratish. Ularning zamonaviy va qulay bo'lishi zarur. Shahrisabz va uning atrofida ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirish, tabiiy go'zalliklarni, qadimiy qishloqlarni va xalq an'analarni tanitish orqali yangi turizm yo'nalishlarini ochish. Turistlarga raqamli xizmatlar, mobil ilovalar, interaktiv xaritalar va onlayn tizimlar orqali xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish.

Mahalliy aholi turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularni bu jarayonga jalb qilish, turizmdan foyda olishlari va ularning iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Bu bo'yicha bir nechta chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak masalan: turizm sohasida ta'lim va treninglar olib boorish ya'ni mahalliy aholini turizm sohasida ishlash uchun tayyorlash. Bu sayohatchilarga xizmat ko'rsatish, madaniyatni tushuntirish va turistik mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish. Bu esa mahalliy aholining o'ziga ham ko'plab foydalar olib keladi ya'ni aholi ish bilan ta'inlanadi shu bilan birga doimiy daromatga ham ega bo'ladi. Mahalliy mahsulotlarni targ'ib qilish Shahrisabzda ishlab chiqarilgan an'anaviy mahsulotlar, hunarmandchilik, oziq-ovqat va boshqa madaniy xususiyatlarni sayohatchilarga tanitish. Mahalliy aholi uchun ijtimoiy tadbirlar, festivallar, san'at ko'rgazmalari va madaniy dasturlar tashkil etish. Bu shu bilan birga, turizmni jozibadorroq qiladi va sayohatchilar uchun qiziqarli atmosferani ham yaratadi. Shahrisabzni global turizm xaritasida yanada tanitish uchun samarali marketing strategiyalari ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonda ko'plab masalalarga e'tibor qaratish kerak jumladan: Xalqaro turizm ko'rgazmalarida ishtirok etish. Shahrisabzni jahonda tanitish uchun xalqaro turizm ko'rgazmalarida ishtirok etish va global miqyosda reklamalarni o'tkazish zarur. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn marketing: Internetda Shahrisabzning tarixiy va madaniy boyliklarini taqdim etish, onlayn reklama va ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatniyanada kengaytirish. Turizm agentliklari bilan hamkorlik: Xalqaro va mahalliy turizm agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish, sayohatchilar uchun maxsus paketlar va yo'nalishlarni taklif qilishda davom etishimiz zarur.

Eng muhimi shundaki, yurtimizda ya'ni ko'hna zaminimiz Shahrisabzda ham turizmni rivojlantirish uchun barcha shart- sharoitlar yaratilmoqda va turistlar sonini yanada ko'paytirish maqsadida bir qancha islohotlar ham amalga oshirilmoqda. Bunga biz hozirgi kunda imzolanayotgan diplomatik shartnoma va kelishuvlarni aytishimiz mumkin. O'zbek milliy o'yinlarini xorijiy va mahalliy sayyohlarga namoyish etish maqsadida Kitob tumanida 2021 yilning 23-mart kuni uloq-ko'pkari o'yinlari tashkil etildi. Uni 80dan ortiq xorijiy va 100dan ortiq mahalliy sayyohlar zo'r g'iziqish bilan kuzatdilar. Turistlarni keng jalb qilish bo'yicha tadbirlarni jadallashtirish borasida shaharning turistik brendini yaratish va keng miqiyosda targ'ib qilish bo'yicha tanlov e'lon qilindi, chet el ommaviy axborot vositalari va turistik kompaniyalari uchun infoturlar tashkil etish maqsadida yo'nalish va mehmonxonalar ro'yxati tayyorlanmoqda, videofilmlar yaratish yuzasidan ssenariy va shaharning turistik ekskursiya kartasi ishlab chiqilmoqda, shuningdek turistik ma'lumotnoma ofislari tashkilashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. O'tgan 2019-yilning yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga 6, 748 million kishi tashrif buyurgan bo'lib, bu 2018-yil statistikasidan 125 foizga shubhasiz ko'pdir. O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan 6, 260 million kishi MDH mamlakatlaridan, 488, 4 ming sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan. Shahrisabz bo'ylab sayr qilar ekanmiz, eski madrasalarda yoki shunchaki yo'l bo'ylab joylashgan ko'plab esdalik sovg'alar bilan savdo qiluvchi ustaxonalarni ko'rishingiz mumkin. Ular orasida shahar tasviri tushurilgan turli xil shakldagi magnitlar alohida ajralib turadi. Odatdagidek loy va keramikadan yasalganlardan tashqari, yog'och, qog'oz, teri va hatto marmardan yasalganlari ham bor. Bundan tashqari Shahrisabz iqlimi ham turistlar uchun mos keladi negaki, havo unchalik issiq emas va tabiat qo'ynida sayohat qilayotganda iqlim ularga xalaqit bermaydi. Tog' yonbag'irlariga turistlar bilan tashrif buyurganda esa yovoyi hayvonlarni daryolarda esa bir necha turdagi baliqlari ko'rishimiz mumkin. Eng qiziqarlisi shundaki, Shahrisabzdan o'tadigan asosiy magistral buyuk italyan sayyohi Makro Poloning marshrutini takrorlaydi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, Shahrisabz har tomonlama turistlar uchun qulay makon hisoblanadi, undagi mehmonxonalar ham turistlar uchun har tomonlama moslashtirilgan. Shahrisabzda turizmni rivojlantirishda tarixiy merosni saqlash va zamonaviy infratuzilma yaratish o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash muhimdir. Tarixiy yodgorliklarni tiklash va ularni himoya qilish, shahar infratuzilmasini yangilash va mahalliy aholini turizm jarayonlariga jalb qilish orqali, Shahrisabz nafaqat O'zbekiston, balki dunyo miqiyosida tanilgan turistik markazga aylanishi mumkin. Bunda turizmni strategik ravishda rivojlantirish va turizm sohasi uchun yuqori sifatli infratuzilma yaratish orqali, shahar iqtisodiy o'sishda, madaniy rivojlanish va global turizm bozorida o'z o'rnini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qadimiy Shahrisabz tarixidan lavhalar O.Holmatov.
2. Shodiev, T., Turayev, B., & Shodiyev, K. (2021). ICT and Economic Growth Nexus: Case of Central Asian Countries. *Procedia of Social Sciences and Humanities*.
3. Doctor Chaturaporn Sihabutr (2012) Technology and international specialisation in tourism. 121-122 pp.
4. Gulomkodiroya, M. S. Qizi. (2024). A STUDY ON VARIOUS E-RECRUITMENT TOOLS AND ITS EFFECTIVENESS FOR RECRUITMENT. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10(10), 32-34. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.902>
5. Yuldasheva Nilufarxon a'zamjon qizi, (2024) [XULQ-ATVOR MOLIVASINING ASOSLARI VA UNING INVESTORLARNING QAROR QABUL QILISHDAGI O'RNI](#) University Research Base, 2024 Retrieved from: <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/510>
6. Mexmonaliyev, U. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. *University Research Base*, 277-279. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/515>
7. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL

8. Umarov, O., & To'xtanazarova, M. (2024). MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 37-40.
9. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
10. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
11. Kamoldinovna, S. Y. (2024). TURIZMDA MAHSULOT VA BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH. University Research Base, 906-909.
12. Исмоилов, Б. М. (2025, January). Давлат харидларини ривожланишига таъсир этувчи омиллар. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 2, No. 2, pp. 33-39).
13. Ismoilov, B. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT XARIDLARIDAGI ISHTIROKI:(Farg'ona viloyati misolida). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 133-135.
14. Yormonqulova, N. (2024). IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109-112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>
15. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. University Research Base, 273-276. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514>

TURIZM SOHASINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

sultonovayulduzxon66@gmail.com

Nabiyeva Yulduzxon

Qo'qon universiteti TZ-1-23 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning mazmuni, uning ta'riflari va rivojlanish tarixi haqida so'z yuritilgan. Turizmning mohiyati, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflar asosida tushuntiriladi. Shuningdek, turizm industriyasi, uning tarkibiy qismlari va xizmat ko'rsatish tarmog'ining ahamiyati ta'kidlanadi. Maqolada Buyuk Ipak yo'lining turizmga ta'siri, temir yo'llar va aviatsiyaning rivojlanishi bilan turizmning kengayishi, Tomas Kuk kabi shaxslarning zamonaviy turizmga qo'shgan hissasi haqida ham ma'lumot berilgan. Umuman olganda, turizmning tarixiy taraqqiyoti va uning global iqtisodiyotdagi o'rne yoritilgan.

Kalit so'z: sayohat-turizmi, buyuk ipak yo'li, tur, xafsiz pul, Tomas Kuk.

Abstract: This article discusses the content of tourism, its definitions and the history of its development. The essence of tourism, its economic and social significance are explained based on the definitions given by various scholars. The importance of the tourism industry, its components and the service network is also emphasized. The article also provides information on the impact of the Great Silk Road on tourism, the expansion of tourism with the development of railways and aviation, and the contribution of figures such as Thomas Cook to modern tourism. In general, the historical development of tourism and its role in the global economy are covered.

Keywords: travel-tourism, Great Silk Road, tour, safe money, Thomas Cook.

Аннотация: В статье рассматривается содержание туризма, его определения и история его развития. Сущность туризма, его экономическое и социальное значение раскрываются на основе определений, данных различными учеными. Подчеркивается также важность туристической отрасли, ее составляющих и сферы услуг. В статье также представлена информация о влиянии Великого шелкового пути на туризм, расширении туризма с развитием железных дорог и авиации, а также о вкладе таких личностей, как